

SHAMSUDDIN SAMARQANDIYNING “AL-QASIDA AL-FAIHA FI- TAJVID AL-FOTIHA” ASARI QUR’ON ILMIGA OID MANBA SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8434037>

Raymberdiyev Ahad Shuxratovich

*Toshkent Davlat sharqshunoslik Universiteti Arab tili filologiyasi kafedrasi stajyor
o'qituvchisi*

Anotatsiya

Qur'on ilmlari islomiy ilmlar ichidagi eng ahamiyatli ilmlardan biridir. Chunki qur'on ilmi mo'min-musulmonlar uchun eng muqaddas bo'lgan Qur'oni karimga bevosita bog'liq ilmdir. Qur'onshunoslik ilmlari bevosita qur'oni karimning nozil bo'lishi, uning jamlanishi, qiroati, tajvidi, shuningdek, tafsir ilmlarini va yana boshqa ko'plab qur'oni karimga bog'liq bo'lgan bir qancha ilmlarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur maqolada olim qur'on qur'onshunoslik ilmiga ko'plab ilmiy asarlari orqali ushbu ilm rivojiga hissa qo'shgan olim Shamsuddin Samarqandiyning asari asari va uning qo'lyozma nusxasi haqida ma'lumotlat keltirilgan.

Kalit so'zlar

Shamsuddin Samarqandiy, tirik qur'on, "al-qasida al-faiha fi- tajvid al-fotiha" Al-qiroatu-s-sab', Al-mabsut fi-l-qiroati-s-sab' qiroat, as-sanoiy, At-tajrid fi-t-tajvid.

Tarixdan ma'lumki, yurtimizda Kur'oni karimni tajvidga ko'ra go'zal tilovat kilishga yuksak e'tibor beriladi. Uning qori-yu xofizlariga o'zgacha ehtirom ko'rsatilib, ularni «Tirik Qur'on», deb e'zozlanadi. Iltiqlolga erishganimizdan so'ng hamma jabhalar qatori Qur'on qiroati va tajvid ilmi ham rivojlandi. Yurtimiz Markaziy Osiyodagi qorilari eng ko'p mamlakat sifatida e'tirof etildi. Tafsir, qiroat, tajvid, ulumul-qur'on ilmiga tegishli o'zbek tilidagi ko'plab asarlar o'zbek kitobxonlarining qo'liga yetib bordi. Bir qancha oliy diniy va o'rta maxsus islom bilim yurtlari tashkil etilib, ularning tarkibida Qur'on yodlatish bo'limlari ochildi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, mazkur davr mobaynida O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan har yili islomiy ta'lim muassasalarining talabalari o'rtasida «Qorilar musobaqasi» o'tkazilmoqda. Istiqlol yillari mobaynida vatanimizda ham qiroat va tajvid ilmini yoritib beruvchi ko'plab tadqiqotlar olib borildi va o'zbek tilida bir qancha kitoblar nashr etildi. Jumladan, Qur'on qiroatini o'rganishga kirishgan har bir o'quvchiga foydali, yurtimizda mashhur «Muallimi

soniy» alifbosi ustozimiz Jahongir kori Ne'matov tomonidan ovozli audio varianti ilovasi bilan qayta nashr etildi. Bundan tashqari, ushbu muallif tomonidan tajvid mavzularini bayon etuvchi «Tartil» va tajvid ilmining sultonı Imom Jazariyning «Al-muqaddima al-Jazariyya» risolasining o'zbek tilidagi sharhi bo'l mish «Tartil asoslari» kitobi xam ovozli audio varianti ilovasi bilan o'quvchilar e'tiboriga taqdim etildi. Shuningdek, Rahmatulloh Nurmatov Abdullox Muhiddinovning «Tajvid» kitobi, Rahmatulloh Nurmatov va Tolibjon Qodirov tomonidan «Qur'on o'rganish qoidalari» asari, Odinaxon Muhammad Yusuf qalamiga mansub «Mufassal tajvid» kitobi va bir qancha asarlar o'quvchilar hukmiga havola etildi.

O'z davrida Misr diyorining ko'zga ko'ringan qiroat va tajvid ilmi namoyondalaridan Shayx Sulaymon Jamzuriy (xij. 1160-..... mil. 1747-....) qalamiga mansub «Tuhfatul-atfol» asari tajvid qoida larini yoritib beruvchi yengil matn sanaladi. U nazm "urjuza" uslubida xij. 1198, mil. 1784 yilda yozilgan bo'lib, jami 61 baytdan iborat.

Qiroat va tajvid ilmi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, u tarixiy jarayonlar sababli hijriy III asrning boshi, milodiy IX asrning oxiriga kelib mustaqil ilm sifatida maydonga chiqa boshladi. Shu davrdan boshlab qiroat va tajvid ilmida ko'plab asarlar dunyo yuzini ko'rди. Alloma Shamsuddin Samarqandiy nomi bilan mashhur bo'lgan olimning to'liq ismi – Shamsuddin Muhammad ibn Mahmud ibn Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy bo'lib, o'z zamonasining mashhur Qur'on va boshqa ilmlar olimlaridan biri sifatida butun musulmon olamida tanilgan. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida, asosan, arab manbalarida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, allomaning tavvalud sanasi namalumdir. Manbalarda Hamadonda tug'ilgan, yana boshqa manbalarda, asli Hamadonlik, Bag'dodda tavallud topgani qayd etilgan. Tug'ilgan sanasi taxminan 780/1378-yilda vafot etgan.

Shamsuddin Samarqandiy asli samarqandlik bo'lib, umrining ko'p qismi Bag'dodda o'tgan. Alloma hayoti haqidagi ma'lumotlar bizgacha juda ham oz yetib kelgan. Manbalarda uning biror bir mansab sohibi bo'lganligi yoki hukumatda tutgan o'rni haqida xabar berilmagan. Mavjud manbalarda qayerda vafot etgani va qayerga dafn etilgani haqidagi ma'lumotlar ham berilmagan. Keltirilgan ma'lumotlarda allomaning tarji-mai holidan ko'ra, uning qoldirgan ilmiy merosi – asarlarining xabari bilan cheklanilgan. Bir qancha manbalarda u kishini fors bo'lgan deya ta'kidlangan.

Allomaning qiroat ilmida o'z davrining yetuk allomasi bo'lib yetishishida ustozlarining hissalari katta bo'lgan. Alloma qiroatdagi tajvid, Qur'on tilovatidagi tayanch zeb berish, qat'iyat va tartib qoidalari sirlarining har birini

o'sha davrning buyuk qorilari va qiroat borasidagi mashhur olimlardan tahsil olganligi manbalarda qayd etilgan. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar.

- Ibn Abd nomi bilan taniqli olim Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad,
- Ahmad ibn Ali ibn Ahmad ibn Fasih Ko'fiy, Devoniy,
- Solih ibn Abdulloh Asadiy,
- Ahmad ibn Muhammad ibn Mahruq,
- Sayyid Rizo Husayn ibn Qatoda ibn Mazru', va boshqa o'z davrining bir qator yirik ulomolaridan tahsil oladi.

Shamsuddin Samarqandiying bizga ma'lum bo'lgan shogirdlaridan:

Qur'on, lug'at, nahv, fiqh va boshqa ilmlar bilan mashg'ul bo'lgan

Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Jalol Abu Tohir ibn Shams ibn Jalol ibn Jalol Xo'jandiydir (719/1319).

Qur'on tilovati va hanafiy mazhabining fiqhiy usullari bo'yicha As'ad ibn Muhammad ibn Mahmud Jaloliddin Shiroziy ham allomadan ta'lim olgan.

Allomaning boshqa shogirdlari ham juda ko'p bo'lgan, ammo mavjud manbalarda ular haqida ma'lumot berilmagan.

Shamsuddin Samarqandiy qobiliyatli, o'z ishi-'ning ustasi bo'lib, yetuk qiroat va tajvid olimi bo'lgan. Alloma asosan, qiroat va Qur'on to'g'risidagi asarlarni yod bilgan. U qoldirgan ilmiy meroslarda bizga ma'lum bo'lgan asarlari: kichik kitobcha bo'lgan „As-sanoi” („Mahorat”), jadvali bilan yozilgan „Al-qiroatu-s-sab” („Yetti xil qiroat”), „Kashfu-l-asror fi rasmi masohifi-l-amsor” („Turli shaharlardagi mushaflarning yozuvidagi sirlarning kashf etilishi”), „Attajrid fi-t-tajvid” („Tajviddagi tajrid”), nazm qilib bitilgan „Al-aqdu-l-farid fi nazmi-t-tajrid” („Tajrid nazmidagi yagona marjon”), „Al-mabsut fi-l-qiroati-s-sab” („Yetti xil qiroatdagi mufassal ma'lumot”), „Izohu-l-xavo-lif fi rasmi masohifi-s-savolif” („Salaflar tomonidan ko'chirilgan Mushaf nusxalaridagi xatlarning turlitumanligiga izoh”), „Izohu-l-qavoid fi-l-muammo” („Muammo janri haqidagi qoidalarga izoh”), „Ravhu-l-mu-rid fi sharhi-l-iqdi-l-farid” („Yagona marjon sharhidagi shogirdning shodligi”), „Al-qasidatu-l-foiha fi tajvidi-l-fotiha” („Fotiha tajvidida keng (yoqimli) qasida”) va uning sharhidan iborat bo'lgan kitoblardir.

Alloma temuriylar davri, aynan Amir Temur hukmronlik qilgan vaqtida yashab ijod etgan. Amir Temur allomaning asarlarini mutolaa qilib chiqqan va As-sanoi' (Mahorat) asari haqida: "Alloma kitobda Mus'hafni o'qishda lozim bo'ladigan yo'l-yo'riqlarni o'z xati bilan yozgan. Ular bir necha mingga yetadi va u (kitobcha) qiroatga taalluqli bo'lgan muhim foydalarni o'z ichiga olgan" degan.

Alloma o‘zining ilmiy meroslarida Qur‘on lug‘atlarini, kalimalarining tahriri harflari ni maxraj va sonlarini bilish, so‘zlar, oyatlar, suralar, bo‘limlar haqida va barcha qoidalarni o‘rganib ijod qilgan.

Alloma ushbu kitoblarni har tomonlama chuqur mulohaza bilan bitib, o‘z davrining yirikolini darajasiga yetishgan. Shuningdek olimning “al-qasida al-faiha fi- tajvid al-fotiha” asari qur‘on ilmlari jumladan, tajvid ilmini to‘liq bayon etgan asar hisoblanadi. Mazkur asarning qo‘lyozma nusxasi to‘liq holda saqlanib qolgan, asarning ko‘chirilgan sanasi 1322-hijriy asar nasta‘liq xat turida shuningdek, yeti varoq o‘n to‘qqiz qatordan iborat qo‘lyozmada bazi varoqlari yirtilgan va namdan zararlangan qismlari mavjud. Olimning mazkur asari qur‘on ilmlari, tajvid ilmi bo‘yicha yozilgan asarlarning eng mo‘tabarlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa:

Allomaning yozgan asarlari qiroat ilmini o‘rganishlikda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Eng zarur ilmlardan biri bo‘lgan qiroat ilmi Alloh taoloning kalomini o‘rniga qo‘yib, tartib bilan to‘g‘ri o‘qishga xizmat qiladi. olim bu tuyg‘uni his qilib qiroatga tegishli bo‘lgan mana shunday asarlarni bitishga jazm qilgan.

Afsuski, bizdagi ma’lumotlarda allomaning asarlari saqlanib qolganmi, yo‘qmi va mavjudlari qayerda saqlanayotgani to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotlar keltirilmagan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Zirikliy. Al-a’lom. J. 7. Doru-l-ilm li-l-malayin, 2002. – B.87.
2. Ibn Jazariy. G‘oyatu-n-nihoya fi tabaqoti-l-qurro. J. 2. – Bayrut. Doru-l-kutubi-l-ilmiya, 2006. – B. 227.
3. Qarang. G‘oyatu-n-nihoya. J. 2. – B. 260; Kashfu-z-zunun. – B. 1152, 1582.
4. Ibn Jazariy. G‘oyatu-n-nihoya fi tabaqoti-l-qurro. J. 2. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiyya, 2006. – B. 228.